



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-fevral

60-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 13-yanvardagi PQ-6-son qarori ijrosi haqida”gi 56-6-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 13-yanvardagi PQ-6-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 56-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 13-yanvardagi PQ-6-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 56-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 13-yanvardagi PQ-6-son qarori bilan:

2024-yil 24-iyun kuni Toshkent shahrida imzolangan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Mo‘g‘uliston Hukumati o‘rtasida xalqaro avtomobil qatnovi to‘g‘risidagi Bitim;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Mo‘g‘uliston Hukumati o‘rtasida havo qatnovi to‘g‘risidagi Bitim tasdiqlanganligi;

Transport vazirligi ushbu xalqaro shartnomalarni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi mazkur xalqaro shartnomalarning kuchga kirishi uchun O‘zbekiston Respublikasi tomonidan zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari

bajarilganligi hamda ularni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organ to'g'risida Mo'g'uliston tomoniga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnomalar kuchga kirganidan keyin belgilangan tartibda ularning qoidalari amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlashi belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari- Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov